

**UCHINCHI RENESSANSNI BARPO ETISHDA JADID
MA'RIFATPARVARLARINING BARKAMOL INSON TARBIYASIGA OID
QARASHLARI.**

**ВЗГЛЯДЫ ДЖАДИДСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ НА ГАРМОНИЧНОЕ
ЧЕЛОВЕЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ В ПОСТРОЕНИИ ТРЕТЬЕГО
ВОЗРОЖДЕНИЯ.**

**IN BUILDING THE THIRD RENAISSANCE, THE VIEWS OF THE JADID
ENLIGHTENMENT ON THE HARMONIOUS HUMAN EDUCATION.**

Jabborova Sayyora Muhammadqobilovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedra o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlarining barkamol inson tarbiyasiga oid qarashlari. XIX asrning oxiri XX asrning boshida Turkiston madaniyati, Yevropa madaniyati yangiliklari, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi o'zgarishlar Turkiston madaniyatida yerli xalqning mustamlakachilik siyosati, kamsitilishiga qarshi ma'rifatchilik harakati bu madaniyatdagi mustamlakachilikka qarshi mustaqillikka xalq ongini oshirish, o'z ahvolini yaxshilashga intilish va bu haqidagi fikrlarni millat ongiga singdirishga harakat qilgan Ulug' bobolarimizning tarbiyaga oid qarashlari haqida so'z yuritiladi.*

***Аннотация.** В этой статье рассматриваются взгляды джадидских просветителей на гармоничное человеческое воспитание. Культура Туркестана в конце XIX-начале XX века, нововведения в европейской культуре, изменения в странах Ближнего Востока колониальная политика коренных народов в культуре Туркестана, просветительское движение против дискриминации антиколониальная независимость в этой культуре способствовала росту народного сознания, стремлению к улучшению своего положения и воспитанию наших прадедов, которые пытались привить мысли об этом в сознание нации. упоминаются его взгляды.*

***Annotation.** In this article, The views of the Jadid enlightenment on harmonious human education. At the end of the 19th century at the beginning of the 20th century, Turkestan culture, news of European culture, changes in Middle Eastern countries in Turkestan culture, the colonial policy of the indigenous people, the Enlightenment movement against discrimination against colonialism in this culture talk about the educational views of our great-grandfathers who tried to raise popular consciousness, to improve*

***Kalit so'zlar.** Jadid, Sharq Uyg'onish davri, mustamlakachi davlat, Avloniy, Is'hoqxon Ibrat Fikr erkinligi.*

Ключевые слова. Джадид, Восточный Ренессанс, колониальное государство, Авлони, Исаак Хан Макрат свобода мысли.

Keywords. Jadid, the Eastern Renaissance, the colonial state, Avloni, is'ahaq Khan AbRam freedom of thought.

Kirish. O'zbek davlatchiligi tarixida IX asrdan XV asrgacha bo'lgan davrda musulmon mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan gurkirab rivojlandi, bu davr ajoyib olim-u mutafakkirlar silsilasini yetishtirib berganligi dunyo ahliga yaxshi ma'lum. Sharqda ham, G'arbda ham Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotining benazir davridir.

Ilm-fan, ma'rifat va madaniyat qachon rivojlanadi? Qachonki, davlat rahbari ilm bilan shug'ullanish uchun barcha shart-sharoitni yaratib bersa, ilm ahliga homiylik va rahnamolik qilsa, shul mamlakat rivojlanadi, taraqqiy etadi.

Sharq Uyg'onish davrida Yevropa Uyg'onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo'shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi beqiyos asarlarning yaratilgani shundan dalolat beradi. Bu davrda ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlar yetishib chiqdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'beklar jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azzoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqildi. She'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o'lmas asarlar yaratdilar. Keying asrlarga kelib mamlakatimiz xududidagi xonlik va amirliklarniing o'zaro adovati, ilmsizlik hamda joxilliklar sabab xalqimiz ko'p yillar davomida qaramlikda qolib ketdi. Tarixdan ma'lumki hech bir mustamlakachi davlat o'z vassallariga erkinlik unda yashayotgan xalqlarga ilm olishi va o'z haq-huquqlarini tushunib yetishiga imkon bermaydi. Ana shunday tarixniing qora kunlaridan Sovet mustabid tuzumi davrini misol keltirsh mumkin. Xalqning ongini va saviyasini oshirishga intilgan millat qaxramonlari doimo topilgan ammo ularga yelkadosh bo'la oladigan ilmi va jasoratli kishilar ozchlikni tashkil etardi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshida Turkiston madaniyati qator talantli olim, sayyox, shoir, pedagog, jurnalistlarni etishtirib chiqardi, ular xalqimizning umumiy madaniyati rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdilar. Yevropa madaniyati yangiliklari, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi o'zgarishlar Turkiston madaniyatida yerli xalqning mustamlakachilik siyosati, kamsitilishiga qarshi ma'rifatchilik harakatini kuchaytirib yubordi. U asosan xalqni yangi madaniyat, ma'rifatga chaqirishga, millatni

uyg‘otishga, yangilanayotgan ma’naviyatni egallashga yo‘naltirilgan edi. Asta-sekin ma’rifatchilikdan jadidchilik o‘tib chiqdi va u ma’lum darajada siyosiy masalalarni olg‘a sura boshladi.

Yangi ta’lim-tarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ‘ibot, tashkilotchilik masalalari asosiy o‘ringa ko‘tarildi. Yangiliklarga asoslangan holda rus va eski feodal maorifdan farq qiluvchi fikr-g‘oyalar oldinga surildi, ular erli matbuot, turli kitoblar orqali keng targ‘ib etildi. Bu madaniyatdagi mustamlakachilikka qarshi mustaqillikka xalq ongini oshirish, o‘z ahvolini yaxshilashga intilishning ko‘rinishlaridan edi. Mamlakatimiz tarixida alohida Jadidlar deya e’tirof etiladigan buyuk shaxslar Turkistonda jadidchilik xarakatining rahbarlari sanalgan Maxmudx‘ya Bexbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov birlashtiruvchi va jiplashtiruvchi rolni y‘ynashgan. Buxoroda - Fayzulla X‘yjaev va Abdurauf Fitrat, Xiva xonligida esa - Polvonniyoz Yusupov bu xarakatga boshchilik qilishgan. Jadid maktablari taraqqiyotining yangi davri – bunday maktablar uchun zamon talablariga to‘la javob bera oladigan pedagoglar guruhini tarbiyalab yetishtirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratish, yangi texnik vositalar, ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqish XX yuzyillikning 10-yillaridan ko‘zga tashlana boshladi. Buning uchun endi ushbu maktablarning nazariy asoslarini yaratish, yangi zamonaviy o‘qitish usullarini ishlab chiqish va ulardan yosh avlod o‘qituvchilarini bahramand qilish kerak edi. Mana shunday buyuk vazifani ado etish zamonasining ulug‘ mutafakkirlari Abdulla Avloniy hamda Abdurauf Fitratlar zimmasiga tushdi.

Abdulla Avloniy – shoir, yozuvchi, dramaturg, publitsist. Shu bilan birga, pedagogik faoliyat ham uning hayotida muhim sahifani tashkil etadi. U faoliyatining ilk bosqichidan to umrining so‘nggi damlarigacha o‘qituvchilik qildi, pedagogika fanining ham nazariy, ham amaliy masalalari bilan muttasil shug‘ullandi, darsliklar yaratdi. Aytish mumkinki, u musulmon sharqi mumtoz pedagogikasining katta bilimdoni, shu bilan birga, XX asr zamonaviy o‘zbek pedagogikasining asoschisi, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi fanining tamal toshini qo‘ygan mutafakkirdir. U faoliyati davomida ko‘plab zamonaviy pedagoglarni, metodist olimlarni tarbiyalab yetishtirdi.

Ma’lumki, o‘quvchilarni ifodali o‘qishga o‘rgatish adabiy o‘qish darslarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ko‘rgazmali vosita vazifasini bajaruvchi ifodali o‘qish natijasida asar voqealari, g‘oyasi o‘quvchilar ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. Abdulla Avloniy savod chiqarishga qanchalik katta e’tibor bergan bo‘lsa, asarni tushunib o‘qish, ifodali o‘qish, badiiy asarni his qilishga shunchalik ko‘p diqqat qiladi. U ifodali o‘qishning bir necha turini ishlab chiqdi. O‘quvchilarning xor bo‘lib o‘qishlarini o‘qituvchi A.Avloniy dirijyor kabi (chunki u dirijyorlik san’atidan xabardor edi – U.D.) boshqarib borgan. Hur fikrlar bilan ma’rifat maydoniga chiqqan

mutafakkir o‘z darslarida ifodali o‘qishning ibtidoiy shakllari bilangina cheklanib qolmadi, shu bilan birga, uning yangi, zamonaviy shakllarini ishlab chiqdi. Abdulla Avloniy asarida axloqiy kategoriyalar haqida fikr yuritar ekan, birinchi o‘rinda o‘quvchilarni ko‘zda tutadi, ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklaydi. Demak, asar o‘quvchilardan ko‘ra ko‘proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so‘zlari “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining maqsadini to‘la ifodalaydi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘b zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidir. Ta‘lim ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur”.

Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li ham o‘zining nutqlarida mamlakatni, xalqni milliy zulm va ma‘rifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yo‘li ma‘rifatda deb bot-bot takrorlagan ma‘rifatparvar jadidlar sirasiga kiradi. Munavvar Qori Abdurashidxonov nutq so‘zlab, inson ma‘rifatli bo‘lib, ko‘zi ochilmaguncha vijdoni uyg‘onmasligini, vijdon uyg‘onmasa na o‘zini, na xalqni erkin muhofaza qila olmasligini, bu iymonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan ifoda etadi.

Fikr erkinligi— insonning asosiy shaxsiy va fuqarolarning siyosiy huquklaridan biri; hozirgi davrda aksariyat mamlakatlarda "axborot erkinligi" deb ataladigan umumiy huquqning tarkibiy qismi. O‘z fikrini ommaviy tarzda (og‘zaki va ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda yozma) bayon etish imkoniyatini bildiradi. Jamiyat a‘zosi bo‘lgan har bir shaxs tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga, fuqarolar bilan siyosiy tashkilotlarga va milliy, irqiy, diniy, sinfiy munosabatlarga ega bo‘lgan mustaqil fikrlarini huquqiy, siyosiy diniy va boshqa muassasalar tomonidan bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli tazyiqlardan muhofaza qiladigan ijtimoiy muhit ham fikr erkinligi sanaladi. Dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o‘zining undagi o‘rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash insonning dunyoni va o‘zini ma‘lum ma‘noda anglashi, tushunishi, bilishi va baholash usuli bo‘lishi jihatdan uning har qanday moddiy va ma‘naviy faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, Munavvar Qori Abdurashidxonov har tomonlama mukammal bo‘lgan ma‘rifatli, o‘z fikr doirasiga ega bo‘lgan dunyoqarashi keng hamda o‘zining fikriga ega bo‘lgan vijdonli va insofli kadrlar tayyorlaydigan dorilfunun ochish g‘oyasini ilgari surgan.

Ma‘lumki, XIX asr oxiri - XX asr boshida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy harakat tarix sahnasiga ma‘rifatparvar shaxslar - jadidlarni olib chiqdi.

Ular o'z bilimlarini millat ravnaqi, jamiyat rivoji yo'lida sarflashga intildi, o'rni kelganda mablag'ini ham ayamadi. Ular orasida Farg'ona jadidchilik harakati vakili Is'hoqxon Junaydullaxon o'g'li Ibratning ham o'rni bor. Ishoqxon Ibrat o'z davrining yirik muarrix sifatida «Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat», «Mezonuzzamon» ilmiy asarlarini yaratdi. Ibrat ushbu asarlarini yaratishda Sharq tarixchilari bilan bir qatorda rus va Yevropa sharqshunoslarining asarlaridan ham foydalandi. Ishoqxon Ibrat «Tarixi Farg'ona» asarida tarixiy voqealarga xon va beklarning munosabatini tasvirlashga alohida e'tibor beradi. Muallif Buxoro amiri Nasrulloning 1842 yilda Qo'qonda mash'um qatlini uyushtirishiga qarshi chiqib, Qo'qon xonligi bilan birlashish va yaqinlashib kelayotgan rus bosqinining oldini olish harakatlarini qilish taklifi bilan chiqqan amir Nasrullo vazirlaridan biri Abdusamad noyibning oqilona so'zlarini keltiradi: «Holo Xo'qand zabt o'ldi, Farg'ona katta mamlakatdur, qancha askar va sipohu xazina sarf o'lub olindi, alholda Rusiyani kelmagi mahalliy xavfdur, agarda xonni onti aqd berub, tavba qiddurub, Xo'qandg'a qo'yub, Buxorog'a tobe' qilib, bir mulk bizlarga kelgan dushmanlarga bir qalqon bo'lur edi», deganida, so'zi amirga ma'qul bo'lmay, og'ziga kafsh bilan urdurg'on ekan». Olim Ishoqxon Ibrat ushbu so'zlarni keltirish orqali xonliklar, amirliklar ma'muriyatida uzoqni ko'ra oluvchi davlat arboblari mavjudligini ta'kidlash bilan birga, Nasrullo kabi kaltabin, burnidan narini ko'ra olmaydigan xonu beklarni qattiq qoralaydi. Ishoqxon Ibrat o'z xalqining porloq kelajagiga, ozod va hur hayot qurajagiga zo'r umid va ishonch bilan qaradi. «Tarixi madaniyat» asarida Vatanning kelajakda ilm-fan, madaniyat rivojlangan shaharlarining qiyofasini romantik bo'yoqlarda tasvirleydi. Uning ilmiy-tarixiy asarlari Vatanimiz tarixini o'rganishda, shubhasiz, zarur, mo'tabar manba hisoblanadi.

XULOSA Ushbu Uchinchi Renessans davrida Ahmad Donish, Berdaq, Feruz, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Bayoniy, Avaz O'tar kabi olim, shoirlar o'z davrining muhim masalalarini ko'tarib chiqdilar va xalqni ilm-fan, ma'rifatni egallashga undadilar. Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, S.Ayniy, Hamza kabi iste'dod egalari jadidchilik g'oyalarini olg'a surish va targ'ib qilish sohasida bayroqdor bo'lib tanildilar. Turkistonning o'z rivojlanish yo'lini targ'ib etishda jonbozlik ko'ratdilar. Mustaqilligimiz arafasida ularning izdoshlari bo'lgan Rauf Parpi va Gulchehra Nurullaeva jasorat ko'rsatib, bu ishni davom ettirdilar. Masalan, 1989 yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi masalasi ko'tarilganda Gulchehra Nurullaeva, "agar o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilmas ekan, o'zimni Qizil Maydonda yoqaman", degan bayonot bilan chiqdi. U umrining oxirigacha haqiqiy mustaqillik uchun kurashdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoyev “Yangi O`zbekiston Strategiyasi”
2. Zunnunov. A “pedagogika nazariyasi”
3. Qosimbek o`g`li P. J. JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O`ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO`NALTIRILGAN TARG`IBOT MAQSAD MUDDAOSI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 20. – №. 7. – С. 39-42.
4. K. Hoshimov “Pedagogika tarixi”
5. B. Qosimov “Ma`rifat darg`alari”
6. Qosimbek o`g`li P. J. JADID MAKTABI YANGI USUL MAKTABLARNING ROLI ASOS SOLINISHI //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 29. – №. 4. – С. 125-129.
7. Mahmudxo`ja Behbudiy “Tanlangan asralar”
Abdulla Avoloniy “Turkiy guliston yohud axloq”
8. Egamberdiyev A., Poziljonov J. JADID MARIFATPARVARLARINING TA`LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O`RNI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 24.